

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

MEXANIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

**Matematika-fizika tenglamalari fanidan elektron o'quv
qo'llanma tayyorlash.**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Amaliy matematika va
informatika ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

NE'MATOVA D.E

ILMIY RAHBAR: f-m.f.n

FAYZIYEV Y.E

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

19-sonli bayonnomasi 18 may 2013 yil

Toshkent-2013

MUNDARIJA

I. KIRISH.....	3
II. ASOSIY QISM	
1. Masalaning qo'yilishi.....	7
2. Masalani yechish.....	8
3. Dasturiy ilova.....	64
III. XULOSA.....	84
IV. Foydalanilgan adabiyotlar.....	85

KIRISH

Bugungi kunda kelib davr talabiga ko'ra kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga kirib bordi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Kompyuter texnologiyalari rivojlanib barcha ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib borilmoqda. Bu esa fan sohasini ham chetlab o'tmadi, hamda ilm fan rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Web –sahifalarni yaratish va undan foydalanish ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limda Web-sahifalardan nafaqat tijorat yoki namoyish vositasi sifatida , balki bilim berish maqsadlarida ham foydalanish mumkin. Albatta bunda ta'lim masofadan turib amalga oshiriladi. Bunday ta'lim berish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi to'g'ridan to'g'ri muloqot qilmasdan olib boriladi. Buning uchun ta'lim beruvchi (oliy o'quv yurti, maktab va boshqalar) o'qitiladigan predmetga tegishli ma'lumotlarni Web-sahifalarga har xil ko'rinishlarda (matn, rasm, jadval, animatsiya, tovushli ma'lumot va hatto video tasma ko'rinishida) joylashi kerak. O'quvchi esa dunyoning xohlagan joyidan turib Internet orqali bu ma'lumotlardan bilim olishi mumkin. Ta'limning bunday ko'rinishi masofaviy ta'lim deb yuritiladi. Masofaviy ta'lim buguni kunga kelib dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida qo'llanilib kelinmoqda. Masofaviy ta'limdan foydalanish natijasida vaqt va pulni tejash, ortiqcha ovvoragarchiliklarsiz bilim olish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bunday imkoniyatlarni bizga Web-sahifalari yaratib beradi Ma'lum predmetga tegishli ma'lumotlarni (matn, rasm, jadval, animatsiya va boshqalarini) sahifalarga joylab, ularni doimiy ravishda to'ldirib borish, o'quvchilarni bilimlarini baholash uchun nazorat test savollarini kiritish imkoniyatlari mavjud . Buning natijasida o'quvchining olgan bilimini nazorat qilish, baholash imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu esa Web-texnologiyadan ta'limda foydalanishning eng optimal variantlaridan biri hisoblanadi.

Hozirda bizning ta'lim tizimimizda ham multimediali apparatlar yangi kompyuter texnologiyalari vositalari yordamida va masofali o'qitish tizimi ham amalga oshirilgan. Shu sababdan o'qitishning zamonaviy usullariga ya'ni elektron o'quv qo'llanmalariga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu o'qitish usuli, tez va sifatli hamda arzon va qulay o'qitishning elektron variantidir. Bundan barcha foydalana olishi, fan yuzasidan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, o'zlashtirgan bilimlarini sinovdan o'tkazib tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu web sahifadan barcha foydalana olishi mumkin. Jumladan, imkoniyati cheklanganlar, nogironlar uchun ham, ma'lum bir sabablarga ko'ra yurolmay darsga kelolmaydigan talabalar uchun ham, ayniqsa multimediali, ovozli elektron o'quv qo'llanmalar ko'rish qobiliyati sust yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotganlar uchun ham uyda o'tirib bo'lsa-da o'z vaqtida bilimlarni o'zlashtirib olishlariga qulay imkoniyat yaratib beradi.

Shu sababdan aniq fanlardan matematika, fizika fanlaridan va ushbu fanlarni bog'lab turuvchi matematika –fizika tenglamalari fanidan elektron o'quv qo'llanma yaratish zarur deb hisobladik.

Ushbularni hisobga olib bitiruv malakaviy ishimda matematika-fizika tenglamalari fanidan elektron o'quv qo'llanma tayyorladim. Ushbu elektron qo'llanma besh qismdan iborat:

Birinchi, web sahifaning asosiy oynasi (shabloni) bu banner, menyu, ma'lumotlar oynasi, asosiy oyna kabi qismlardan tashkil topgan. Bannerda fanning nomi, menyuda asosiy, ma'ruza, misol, o'qish, testlarga gipermurojaatlar qo'yilgan bo'lib, keraklisini tanlab sichqonchani bosganimizda ushbu qismlarga mos kerakli ma'lumotlarni shablonning asosiy oyna qismida ochib beradi. Ma'lumotlar oynasida esa web sahifa va web sahifaning muallifi haqida ma'lumot keltirilgan. Asosiy oyna qismida O'zbekiston milliy universitetining matematika-fizika kafedrasida fizika-matematika fanlari doktori Qosimov Sh.G' va fizika -matematika fanlari nomzodi Fayziyev Yu.E ustozlarimiz tomonidan

tayyorlangan matematika –fizika tenglamalari fanidan “Xususiy hosilali differensial tenglamalarni kanonik ko’rinishga keltirish va uning umumiy yechimini topishga oid mashqlar” o’quv uslubiy qo’llanmaning ko’rinishi muqovasi ko’rsatilgan.

Asosiy qismini ya’ni elektron o’quv qo’llanmaning ko’rinishini (Shablonini) tayyorlashda Adobe Fotoshop, Macromedia Dreamweaver redaktorining HTML tilidan va buni tayyorlashda qulayroq va osonroq bo’lishi, HTML teglaridan kamroq foydalanishim, redaktorga kiritayotgan ma’lumotlarim tushunarli va ixchamroq, tozaroq ko’rinishga bo’lishi uchun CSS stillar jadvaliga murojaat qilib, bunda foydalanoyotgan teglarning atributlarini kititib qo’ydim. Sarlavha (banner) qismini Adobe Fotoshopda tayyorladim.

Ikkinchisi, Ma’ruza qismi xuddi yuqoridagi kabi faqat bunda ma’lumotlar o’rniga mundarija berilgan har bir mavzuga gipermurojaatlar qo’yilgan ixtiyoriy mavzuni tanlaganimizda shu mavzuga tegishli ma’ruzalar matnini va shu mavzuga oid misollar yechishga doir mashqlarni web sahifaning o’ng tomonida asosiy oynaga ochib beradi.

Uchinchisi, misol qismi ma’ruza qismiga o’xshab bunda mundarijadagi mavzulardan birini tanlaganimizda web sahifaning o’ng tomonidagi asosiy oynaga shu mavzuga tegishli 25 ta yoki 50 ta mustaqil yechish uchun misollar keltiriladi.

To’rtinchisi, O’qish qismi ma’ruza qismidagi kabi bunda mundarijadan kerakli mavzuni tanlaganimizda shu mavzuninig ovoqli video ko’rinishini web sahifaning o’ng tomonidagi asosiy oynaga chiqarib beradi. Ovoqli o’qish qismini tayyorlashda ovozga mos animatsiyalar qo’yish uchun Power pointdan foydalanib videoga yozib oldim. Buni web sahifaga joylashtirish uchun esa Microsoft Office paketiga tegishli MS Front Page redaktoridan obyektarni o’rnatish buyrug’idan foydalandim.

Beshinchisi, test qismi bunda barcha mavzularga doir 100 ta test tuzilgan bo'lib, shu testlardan 10 tadan ixtiyoriy tanlab beriladi. Bu 10 testni ishlab bo'lgandan so'ng oxirida "tekshirish" tugmasi bosilganda nechta to'gri javobligini chiqaradi. Yana shu testni o'zini qaytadan ishlash uchun "tozalash" tugmasi bosilib qaytadan shu test ishlanadi. Boshqa testni ishlamoqchi bo'lsak F5 tugmasi bosiladi.

Test qismini ko'rinishini tayyorlash uchun HTML formalardan , ishlash dasturini tuzish uchun PHP web dasturlash tilidan foydalandim.

ASOSIY QISM

Masalaning qo'yilishi:

Mazkur malakaviy bitiruv ishida “Matematik-fizika tenglamalari” fanidan elektron o'quv qo'llanma tayyorlash masalasi qaraladi.

Mazkur masala HTML tilida va PHP web dasturlash tilida qilingan bo'lib Internetga joylashtirganimizda barcha talabalar uchun qulay uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

Mazkur malakaviy bitiruv ishining ya'ni elektron o'quv qo'llanmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Matematik –fizika tenglamalarinining mavzulari haqida to'liq ma'lumot berish;
2. Talabalar o'z bilimlarini yanada mustahkamlashlari uchun mustaqil yechish uchun misollar berish;
3. Mavzular yanada esda qolarli va tushunarli bo'lishi va bundan ko'rish qobiliyatida imkoniyati cheklanganlar ham foydalana olishlari uchun ma'ruzalarni ovozli qilish;
4. Ushbu elektron o'quv qo'llanmadan foydalanuvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazish uchun test o'tkazish;

Masalani yechish

Web sahifadan foydalanish uchun komyuterda Internet Explorer, Mozilla Firefox, Opera, Google Chrome yoki boshqa browserlardan biri o'rnatilgan bo'lishi kerak. Agar ushbu elektron qo'llanmani internetga qo'ysak Internetga qo'yilgan URL adresi to'g'ri berilishi kerak. URL adresi quyidagicha beriladi:

Protocol://ServerName:Port Number/FileName

Protocol: bu http protokolidir.

Server Number: masalan: O'zMU.uz

Port Number: 80, agar hech narsa yozilmagan bo'lsa bu avtomatik 80 portdir.

FileName: ko'pincha ko'rsatilmaydi, serverning ishlashiga bog'liqdir

URL adres to'g'ri ko'rsatilgach browserda quyidagi oyna hosil bo'ladi.

Bu elektron o'quv qo'llanmamizning ko'rinishi:

Elektron o'quv qo'llanmamizning asosiy oynasining ko'rinishi

Matematika Fizika Tenglamalar

ASOSIY MA'RUZA MISOL O'QISH TEST

MA'LUMOTLAR

Ushbu web-sahifaning Ma'ruza qismida kitobning ma'ruzalar matni joylashtirilgan. Misol qismida mustaqil yechish uchun har bir mavzudan 25 tadan misol berilgan bo'lib, o'qish qismida ma'ruzalar matnining ovoqli varianti, test qismida esa olgan bilimlaringizni sinab ko'rishingiz uchun Matematik -Fizika tenglamalari fanidan testlar berilgan.

O'zbekiston Milliy Universiteti
Mexanika-Matematika fakulteti
Amaliy matematika va informatika yo'nalishi 4-kurs talabasi
Ne'matova Dilfuzaning ushbu o'quv uslubiy qo'llanma bo'yicha tayyorlagan Malakaviy Bitiruv ishi

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI
O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SH.G. KASIMOV, YU.E. FAYZIYEV

XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI
KANONIK KO`RINISHGA KELTSIRISH VA UNING UMUMIY
YECHIMINI TOPIHGA OID MASHQLAR

USLUBIY QO`LLANMA

TOSHKENT-2011

Toshkent © 2013

Ko'rib turganimizdek asosiy qismda fanning nomi aks etgan sarlavha (banner), ma'ruza, misol, o'qish, test bo'limlaridan tashkil topgan menyu, web sahifaning o'ng tomonida ma'lumotlar oynasi, bu oynada web sahifadan foydalanish va web sahifaning muallifi haqida ma'lumotlar berilgan. Sahifaning o'ng tomonidagi asosiy oynaga O'zbekiston Milliy universitetining matematika-fizika kafedrasini, fizika-matematika fanlari doktori Qosimov Sh.G' va fizika -matematika fanlari nomzodi Fayziyev Yu.E o'qituvchilarimiz tomonidan tayyorlangan matematika –fizika tenglamalari fanidan “Xususiy hosilali differensial tenglamalarni kanonik ko'rinishga keltirish va uning umumiy yechimini topishga oid mashqlar” o'quv uslubiy qo'llanmaning ko'rinishi (muqovasi) ko'rsatilgan.

Ushbu elektron o'quv qo'llanmaning asosiy qismini ya'ni ko'rinishini yaratish uchun Macromedia Dreamweaver redaktorining HTML tilidan, tez, qulayroq va osonroq tayyorlash uchun HTML teglaridan kamroq foydalanish, redaktorga kiritayotgan ma'lumotlar tushunarli, tozaroq ya'ni teglar va teglarning atributlarini kamroq yozish uchun CSS stillar jadvaliga murojaat qilib, bunda foydalanoyotgan teglarning atributlarini kititib qo'yildi. Banner qismi Adobe Fotoshopda tayyorlandi.

Asosan

```
<div>
```

```
</div>
```

blokli elementlaridan, juft teglaridan foydalandim. Stillarini "style.css" degan alohida faylga berib qo'ydim. Stillarni alohida faylga berganimning sababi boshqa bir nechta sahifalarga ham ta'sir qilish uchun. Bu faylni kerakli sahifaga bog'lash uchun esa Macromedia Dreamweaver redaktorida HTML tilidan foydalanish uchun "код" qismini tanlab

```
<head>
```

bo'limida

```
<link href="styles.css" rel="stylesheet" type="text/css" media="screen" />
```

```
</head>
```

deb yozib qo'yiladi

Menyu qismining ma'ruza bo'limi

Elektron o'quv qo'llanmaning menyu qismidan ma'ruza bo'limini tanlaganimizda quyidagi oyna hosil bo'ladi.

The screenshot shows a web interface for 'Matematika Fizika'. At the top, there is a navigation bar with buttons for 'ASOSIY', 'MA'RUZA', 'MISOL', 'O'QISH', and 'TEST'. On the left, a 'MUNDARIJA' (Table of Contents) sidebar lists various topics with blue arrows pointing to the right. The main content area displays the text of a lesson titled '1 - §. XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMANING XARAKTERISTIKASI HAQIDA TUSHUNCHA'. The text discusses orthogonal coordinates and partial derivatives, including mathematical formulas for the gradient of a function F with respect to parameters α_j .

Ushbu elektron o'quv qo'llanmaning chap tomonida mundarija berilgan bo'lib har bir mavzuga gipermurojaatlar qo'yilgan bo'lib mundarijadan ixtiyoriy mavzuni tanlasak, elektron o'quv qo'llanmaning o'ng tomonidagi asosiy oynaga shu mavzuga tegishli ma'ruzalar matni va shu mavzudan misollar yechilishiga doir mashqlar beriladi.

Masalan: mundarijadan "Xususiy hosilali differensial tenglamaning xarakteristikasi haqida tushuncha" mavzusi ustiga sichqonchani keltirib bossak web sahifaning o'ng tomonida quyidagi ma'ruzalar matni hosil bo'ladi.

1-& XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMANING XARAKTERISTIKASI HAQIDA TUSHUNCHA

Ω -orqali x_1, x_2, \dots, x_n , $n \geq 2$, ortogonal dekart koordinatali x nuqtalarning n -o'lchamli R^n evklid fazosidan olingan sohani belgilaymiz.

Ω -sohadan olingan x nuqta va

$$\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n, \quad \alpha_j = k, \quad k = 0, \dots, m, \quad m \geq 1, \quad j=1, \dots, n$$

manfiymas butun indeksli $p_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n}$ haqiqiy o'zgaruvchili

$F(x, \dots, p_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n})$ - haqiqiy qiymatli funksiya berilgan bo'lib, hech

bo'lmaganda $\frac{\partial F}{\partial p_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n}}$, bunda

$$\sum_{j=1}^n \alpha_j = m$$

hosilalardan birortasi noldan farqli bo'lsin. Bu yerda

$$p_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n} = \frac{\partial^m u}{\partial x_1^{\alpha_1} \partial x_2^{\alpha_2} \dots \partial x_n^{\alpha_n}} \quad \text{deb olamiz.}$$

$$F(x, \dots, \frac{\partial^k u}{\partial x_1^{\alpha_1} \dots \partial x_n^{\alpha_n}}, \dots) = 0 \quad (1)$$

shakldagi tenglik $u(x) = u(x_1, x_2, \dots, x_n)$, $x \in \Omega$ noma'lum funksiya nisbatan m -tartibli xususiy hosilali differensial tenglama deyiladi va bu tenglikning chap tomoni esa, m -tartibli xususiy hosilali differensial operator deyiladi.

Ω sohada aniqlangan $u(x)$ haqiqiy qiymatli funksiya va uning (1) tenglamada qatnashgan barcha xususiy hosilalari uzluksiz bo'lib, bu tenglamani ayniyatga aylantirsa, u holda shu funksiya regulyar yechim deyiladi.

Agar F funksiya $p_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n}$ bunda

$$\alpha = \prod_{j=1}^n \alpha_j = k, \quad k = 0, \dots, m$$

barcha o'zgaruvchilarga nisbatan chiziqli funksiya bo'lsa, u holda (1) tenglamaga chiziqli tenglama deb ataladi. Agar F funksiya $p_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n}$, bunda

$$\alpha = \prod_{j=1}^n \alpha_j = k, \quad k = 0, \dots, m$$

barcha o'zgaruvchigagina nisbatan chiziqli bo'lsa, u holda (1) tenglamaga kvazichiziqli tenglama deb ataladi.

$Lu = f(x)$ chiziqli tenglama uning o'ng tomonidagi o'ng tomonidagi $f(x)$ funksiyaning barcha $x \in \Omega$ uchun nolga teng yoki aynan noldan farqli bo'lishligiga qarab bir jinsli yoki bir jinsli bo'lmagan tenglama deb ataladi.

Osongina ko'rsatish mumkinki, agar $u(x)$ va $v(x)$ funksiyalar bir jinsli bo'lmagan $Lu = f(x)$ chiziqli tenglamaning yechimlari bo'lsa, u holda ularning ayirmasi $w(x) = u(x) - v(x)$ esa $Lw = 0$ bir jinsli tenglamaning yechimi bo'ladi. Bundan tashqari, agar $u_k(x)$, $k = 1, \dots, l$ funksiyalar bir jinsli tenglamaning yechimlari bo'lsa, u holda

$$u = \sum_{k=1}^l c_k u_k(x),$$

bunda c_k — haqiqiy o'zgarmaslar, ham shu tenglamaning yechimi bo'ladi.

(1) tenglamaning tipi

$$K \xi_1, \dots, \xi_n = \frac{\partial F}{\partial p_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n}} \xi_1^{\alpha_1} \dots \xi_n^{\alpha_n}$$

xarakteristik forma orqali aniqlanadi.

$$a_\alpha(x) D^\alpha u = f(x) \quad (2)$$

$$\alpha \leq m$$

tenglama m -tartibli xususiy hosilali chiziqli differensial tenglamaning umumiy shakli, bunda $\alpha = \alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n$ – multiindeks, $\alpha_j \geq 0, j = 1, n$, bundan tashqari α_j – butun sonlar, $|\alpha| = \alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_n$ multiindeks moduli,

$$D^\alpha u = \frac{\partial^{|\alpha|} u}{\partial x_1^{\alpha_1} \dots \partial x_n^{\alpha_n}}$$

bo'lsin. $D^\alpha \rightarrow \xi^\alpha$ almashtirish orqali (2) tenglamaning

$$a_\alpha(x) \xi^\alpha$$

$$\alpha \leq m$$

simvolini hosil qilamiz, bunda $\xi^\alpha = \xi_1^{\alpha_1} \xi_2^{\alpha_2} \dots \xi_n^{\alpha_n}$.

$$a_\alpha(x) \xi^\alpha$$

$$\alpha = m$$

formaga (2) tenglamaning bosh simvoli yoki xarakteristik ko'phadi deb ataladi. $x \in \Omega$ tayinlangan nuqta bo'lsin. Noldan farqli $\xi = \xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n \neq 0$ vektor uchun

$$a_\alpha(x) \xi^\alpha = 0$$

$$\alpha = m$$

bo'lsa, u holda bu vektor xarakteristik yo'nalish deb ataladi.

$F(x_1, x_2, \dots, x_n) = 0$ formula bilan berilgan gipersirt uchun har bir nuqta xarakteristik yo'nalishga ega bo'lsa, ya'ni

$$F(x_1, x_2, \dots, x_n) = 0$$

$$a_{\alpha} x \frac{\partial F}{\partial x_1} \dots \frac{\partial F}{\partial x_n} = 0, \quad \text{grad}F \neq 0 \quad (3)$$

bo'lsa, u holda xarakteristik sirt deb ataladi. Bu xarakteristika tenglamasidir, bunda

$$\text{grad}F = \frac{\partial F}{\partial x_1}, \frac{\partial F}{\partial x_2}, \dots, \frac{\partial F}{\partial x_n}.$$

Ikkinchi tartibli kvazichiziqli (barcha yuqori tartibli hosilalarga nisbatan chiziqli) uzluksiz $a_{ij}(x)$ koeffitsiyentli tenglamani qaraymiz:

$$\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n a_{ij} x \frac{\partial^2 u}{\partial x_i \partial x_j} + \Phi(x, u, \text{grad} u) = 0. \quad (4)$$

$x = x_1, x_2, \dots, x_n$, $n \geq 2$ o'zgaruvchili $F(x)$ funksiya C^1 sinfdan olingan bo'lib, $F(x) = 0$ sirtida $\text{grad}F(x) \neq 0$ va

$$\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n a_{ij} x \frac{\partial F}{\partial x_i} \cdot \frac{\partial F}{\partial x_j} = 0 \quad (5)$$

bo'lsin. U holda $F(x) = 0$ esa (4) kvazichiziqli differensial tenglamaning xarakteristik sirti deb, (5) tenglama esa xarakteristik

tenglamasi deb aytiladi. $n = 2$ uchun xarakteristik sirti xarakteristik chiziq deb ataladi.

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \Delta u$$

to'liq tarqalish tenglamasi uchun xarakteristik tenglama

$$F = 0$$

da

$$\frac{\partial F}{\partial t} - a^2 \sum_{i=1}^n \frac{\partial F}{\partial x_i} = 0$$

shaklga egadir.

Uchi (x_0, t_0) nuqtada bo'lga xarakteristik konus deb ataluvchi

$$a^2 (t - t_0)^2 - (x - x_0)^2 = 0$$

sirt xarakteristik sirt bo'ladi.

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2 \Delta u + f$$

Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun xarakteristik tenglama

$$F = 0$$

da

$$-a^2 \sum_{i=1}^n \frac{\partial F}{\partial x_i} = 0$$

shaklga egadir. Uning xarakteristiklari osongina ko'rinadiki, $t = C$ tekisliklar oilasidan iborat bo'ladi.

$$\Delta u = f$$

Puasson tenglamasi uchun xarakteristik tenglama

$$F = 0$$

da

$$a^2 \sum_{i=1}^n \frac{\partial F}{\partial x_i} = 0$$

shaklga ega. Bundan $F = 0$ da $grad F = 0$ ekanligi kelib chiqadi, bu esa mumkin emas, ya'ni xarakteristik sirtga ega emas.

Endi xususiy hosilali differensial tenglamaning tartibini va uning chiziqli differensial tenglama ekanligini aniqlashga doir misollar keltiramiz:

1-misol. $\sin u_x - u_y - \sin u_x \cos u_y + \sin u_y \cos u_x = 0$

tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

Yechish:

$$\begin{aligned} \frac{\partial F}{\partial u_x} &= \frac{\partial \sin u_x - u_y - \sin u_x \cos u_y + \sin u_y \cos u_x}{\partial u_x} = \\ &= \cos u_x - u_y - \cos u_x \cos u_y - \sin u_y \sin u_x = \cos u_x \cos u_y + \\ &\sin u_y \sin u_x - \cos u_x \cos u_y - \sin u_y \sin u_x = 0 \end{aligned}$$

Xuddi

shunday,

$$\frac{\partial F}{\partial u_y} = 0$$

Ekanligini ko'rsatish mumkin. F funksiyadan xususiy hosilalar bo'yicha olingan hosilalar nolga teng ekan. Demak, berilgan tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'lmas ekan.

2-misol. $u_{xx}^2 + u_{yy}^2 - u_{xx} - u_{yy} = 0$ tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

Yechish: Avval berilgan tenglamani soddalashtirib olaylik.

$$F = u_{xx}^2 + u_{yy}^2 - u_{xx} - u_{yy} \quad ^2 = u_{xx}^2 - u_{yy}^2 - u_{xx}^2 + 2u_{xx}u_{yy} - u_{yy}^2 = \\ = 2u_{xx}u_{yy}. \text{ Endi esa, xususiy hosilalar bo'yicha hosilalarni hisoblaymiz:}$$

$$\frac{\partial F}{\partial u_{xx}} = 2u_{yy} \neq 0, \quad \frac{\partial F}{\partial u_{yy}} = 2u_{xx} \neq 0.$$

Demak, berilgan tenglama 2-tartibli xususiy hosilali differensial tenglama ekan.

3-misol. $\cos^2 u_{xx} + \sin^2 u_{xx} + 4u_x^3 - 2u_y + u = 0$

tenglamaning tartibini aniqlang.

Yechish:

$$\frac{\partial \cos^2 u_{xx} + \sin^2 u_{xx} + 4u_x^3 - 2u_y + u}{\partial u_{xx}} =$$

$$= -2 \cos u_{xx} \sin u_{xx} + 2 \sin u_{xx} \cos u_{xx} = 0$$

$$\frac{\partial \cos^2 u_{xx} + \sin^2 u_{xx} + 4u_x^3 - 2u_y + u}{\partial u_x} = 12u_x^2 \neq 0$$

Demak, berilgan tenglama 1-tartibli xususiy hosilali differensial tenglama ekan.

4-misol. $x^2 u_{xx} + x u_{xy} + \sin y \cdot u_x - y^2 u = 0$

tenglama xususiy hosilali chiziqli differensial tenglama bo'ladimi?

Yechish:

$$\frac{\partial x^2 u_{xx} + x u_{xy} + \sin y \cdot u_x - y^2 u}{\partial u_{xx}} = x^2 \neq 0$$

bo'lgani uchun berilgan tenglama 2-tartibli. Hamda tenglama $Lu = f$ ko'rinishida bo'lib, bu yerda

$$Lu = x^2 u_{xx} + x u_{xy} + \sin y \cdot u_x - y^2 u$$

operator noma'lum funksiya va uning hosilari u_{xx} , u_{xy} , u_x , u larga nisbatan chiziqlidir, chunki

$$\begin{aligned} L(\alpha u + \beta v) &= x^2 (\alpha u + \beta v)_{xx} + x (\alpha u + \beta v)_{xy} + \sin y \cdot (\alpha u + \beta v)_x - y^2 (\alpha u + \beta v) \\ &= \alpha x^2 u_{xx} + \alpha x u_{xy} + \alpha \sin y \cdot u_x - \alpha y^2 u + \beta x^2 v_{xx} + \beta v_{xy} \\ &\quad + \beta \sin y \cdot v_x - \beta y^2 v = \alpha Lu + \beta Lv \end{aligned}$$

Va tenglamaning o'ng tomoni $f(x) = 0$ dir. Shuning uchun 2-tartibli xususiy hosilali bir jinsli chizikli differensial tenglama bo'ladi.

5-misol. $xu_{xx}^2 + x + y u_{xy} - 5y \cdot u_x - y^2 u + \sin(x + y) = 0$

tenglama xususiy hosilali chizikli differensial tenglama bo'ladimi?

Yechish: Berilgan tenglama chizikli differensial tenglama bo'la olmaydi, chunki

$Lu = xu_{xx}^2 + x + y u_{xy} - 5y \cdot u_x - y^2 u$ operator u_{xx} ga nisbatan birinchi tartibli (chizikli) emas.

6-misol.

$$xu_{xxy} + y^2 u_{yyy} - 5y \cdot u_{xy} - \ln y \cdot u_x - y^2 u + \sin(x + y) + x^2 = 0$$

tenglama xususiy hosilali chizikli differensial tenglama bo'ladimi?

Yechish: Berilgan tenglama bir jinsli bo'lmagan chizikli differensial tenglama bo'ladi, chunki

$$Lu = xu_{xxy} + y^2 u_{yyy} - 5y \cdot u_{xy} - \ln y \cdot u_x - y^2 u$$

Operator $u_{xxy}, u_{yyx}, u_{xy}, u_x, u$ larga nisbatan birinchi darajali differensial ifoda va

$$f(x) = -\sin x + y - x^2 \neq 0.$$

7-misol. $u_{xxy} - tgy \cdot u_{yy} + 7y \cdot u_{xy}u_{yy} - y \cdot u_x - yu + xy = 0$

tenglama xususiy hosilali chiziqli differensial tenglama bo'ladimi?

Yechish: Berilgan tenglama chiziqli differensial tenglama bo'la olmaydi, chunki

$$Lu = u_{xxy} - tgy \cdot u_{yy} + 7y \cdot u_{xy}u_{yy} - y \cdot u_x - yu$$

operator u_{xy}, u_{yy} larga nisbatan birinchi darajali differensial ifoda emas. Ammo ushbu tenglama kvazichiziqli differensial tenglama bo'ladi, chunki

$$Lu = u_{xxy} - tgy \cdot u_{yy} + 7y \cdot u_{xy}u_{yy} - y \cdot u_x - yu$$

operator yuqori tartibli hosila u_{xxy} ga nisbatan birinchi darajali differensial ifoda bo'ladi.

Agar mundarijadan "Xususiy hosilali differensial tanglamalarning klassifikatsiyasi va ularning kanonik shakli" mavzusini tanlasak, sahifaning o'ng tomonida quyidagi ma'ruzalar matni hosil bo'ladi.

2-§. XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALARNING KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNING KANONIK SHAKLI

Ta'rif. Agar har qanday $\xi \neq 0$ uchun

$$a_\alpha x^0 \xi^\alpha \neq 0$$

$\alpha = m$

(boshqacha qilib aytganda uning haqiqiy xarakteristikasi yo'q) bo'lsa, u holda

$$a_\alpha x D^\alpha u = f(x)$$

$\alpha \leq m$

chiziqli tenglama x^0 nuqtada elliptik tipdagi tenglama deyiladi.

Ta'rif.

Agar

$$\xi_j^2 \neq 0$$

$j=1$

$n-1$

bo'ladigan har qanday ξ_1, \dots, ξ_{n-1} uchun

$$a_\alpha x^0 \xi_1^{\alpha_1} \dots \xi_n^{\alpha_n} = 0$$

$\alpha = m$

tenglama ξ_n o'zgaruvchiga nisbatan m ta haqiqiy va har xil ildizlarga ega bo'lsa, u holda

$$a_{\alpha} x D^{\alpha} u = f(x)$$

$$\alpha \leq m$$

chiziqli tenglama x^0 nuqtada x_n o'q yo'nalishida giperbolik tipdagi tenglama deyiladi.

Ta'rif. Agar x^0 tayinlangan nuqta uchun shunday bir

$$\xi_i = \xi_i \mu_1, \dots, \mu_n, \quad i = 1, 2, \dots, n,$$

o'zgaruvchilarning affin almashtirishini toppish mumkin bo'lib, natijada,

$$a_{\alpha} x^0 \xi^{\alpha}$$

$$\alpha = m$$

forma μ_i o'zgaruvchilarning faqatgina l -tasinigina, bunda $0 < l < n$, saqlasa, u holda

$$a_{\alpha} x D^{\alpha} u = f(x)$$

$$\alpha \leq m$$

Tenglama x^0 nuqtada parabolik maxsuslikka ega yoki parabolik tipdagi tenglama deyiladi.

Ikkinchi tartibli xususiy hosilali chiziqli tenglamani quyidagi shaklda yozish mumkin:

$$\sum_{j=1}^n a_{ij} x_j \cdot u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^n b_i x_i \cdot u_{x_i} + c x u + f x = 0$$

($a_{ij} = a_{ji}$), bunda a, b, c, f funksiyalar $x = x_1, x_2, \dots, x_n$ o'zgaruvchiga bog'liqdir. Yangi ξ_k erkli o'zgaruvchilarni $\xi_k = \xi_k x_1, x_2, \dots, x_n, k = 1, n$ shaklda kiritamiz. U holda

$$u_{x_i} = \sum_{k=1}^n u_{\xi_k} \cdot \alpha_{ik},$$

$$u_{x_i x_j} = \sum_{k=1}^n \sum_{l=1}^n u_{\xi_k \xi_l} \cdot \alpha_{ik} \alpha_{jl} + \sum_{k=1}^n u_{\xi_k} \cdot \xi_k x_i x_j,$$

bunda $\alpha_{ik} = \frac{\partial \xi_k}{\partial x_i}$. Hosila uchun olingan ifodalarni berilgan tenglamaga qo'ysak, quyidagini hosil qilamiz:

$$\sum_{k=1}^n \sum_{l=1}^n a_{kl} \cdot u_{\xi_k \xi_l} + \sum_{k=1}^n b_k \cdot u_{\xi_k} + cu + f = 0,$$

bunda

$$a_{kl} = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n a_{ij} \alpha_{ik} \alpha_{jl},$$

$$b_k = \sum_{i=1}^n b_i \cdot \alpha_{ik} + \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n a_{ij} \cdot \xi_k x_i x_j$$

Endi

$$\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n a_{ij} x^0 y_i y_j$$

Kvadratik formani qaraymiz. y o'zgaruvchi ustida

$$y_i = \sum_{k=1}^n \alpha_{ik} \eta_k$$

chiziqli almashtirish bajarib,

$$\sum_{k=1}^n \sum_{l=1}^n a_{kl} x^0 \eta_k \eta_l$$

kvadratik formaga ega bo'lamiz, bunda

$$a_{kl} x^0 = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n a_{ij} x^0 \alpha_{ik} \alpha_{jl}$$

bo'ladi.

Ma'lumki, chiziqli almashtirishni mos tanlash yo'li bilan kvadratik formaning

$a_{ij} x^0$ matritsasini diagonal shaklga, ya'ni

$$\sum_{i=1}^n \alpha_i \cdot \eta_i^2$$

kanonik shaklga keltirish mumkin bo'lib, bunda $\alpha_i, i = 1, n$ koeffitsiyentlar 1, -1, 0 qiymatlarni qabul qiladi, bundan tashqari inertsia qonuniga ko'ra, musbat, manfiy va nolga teng koeffitsiyentlar soni kvadratik formani kanonik shaklgakeltirishdagi chiziqli almashtirishga invariantdir.

Agar barcha n ta α_i koeffitsiyentlar bir xil ishorali bo'lsa, u holda tenglama x^0 nuqtada elliptik tipdagi tenglama deb, agar $n - 1$ ta α_i koeffitsiyentlar bir xil ishorali va bitta koeffitsiyent unga qarama-qarshi ishorali bo'lsa, u holda tenglama x^0 nuqtada giperbolik tipdagi (yoki normal giperbolik tipdagi) tenglama deb, agar α_i koeffitsiyentlarning m tasi bir xil ishorali va $n - m$ tasi unga qarama-qarshi ishorali $m > 1, n - m > 1$ bo'lsa, u holda tenglama x^0 nuqtada ultragiperbolik tipdagi tenglama deb, agar α_i koeffitsiyentlarning hech bo'lmaganda bittasi nolga teng bo'lsa, u holda tenglama x^0 nuqtada parabolik tipdagi tenglama deb ataladi.

Kanonik formalar:

$$\Delta u + \Phi = 0 \quad \text{elliptik tip ,}$$

$$u_{x_1 x_1} = \sum_{i=2}^n u_{x_i x_i} + \Phi \quad \text{giperbolik tip}$$

$$u_{x_i x_i} = \sum_{i=m+1}^n u_{x_i x_i} + \Phi \quad m > 1, n - m > 1$$

(ultragiperbolik tip)

$$\sum_{i=1}^{n-m} \pm u_{x_i x_i} + \Phi = 0 \quad (m > 0) \quad \text{parabolik tip}$$

O'zgaras koeffitsiyentli bo'lgan holda

$$\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n a_{ij} u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^n b_i u_{x_i} + cu + f = 0$$

Tenglama uning aniqlanish sohasining barcha nuqtalari uchun bir vaqtda o'zgaruvchilarni chiziqli almashtirish yordamida kanonik shaklga keltiriladi. u funksiya o'rniga $u = v \cdot e^{\lambda_1 x_1 + \lambda_2 x_2 + \dots + \lambda_n x_n}$ tenglik yordamida v yangi funksiyani kiritib va λ_1 o'zgaraslarini tegishli tanlash yordamida biz tenglamani yanada sodda shakldagi kanonik formaga keltirishimiz mumkin bo'ladi.

$n = 2$ uchun

$$v_{\xi\xi} + v_{\eta\eta} + cv + f_1 = 0 \quad \text{elliptik tip ,}$$

$$v_{\xi\eta} + cv + f_1 = 0$$

yoki

$$v_{\xi\xi} - v_{\eta\eta} + cv + f_1 = 0$$

giperbolik tip ,

$$v_{\xi\xi} + b_2 v_{\eta} + f_1 = 0$$

parabolik tip .

Menyu qismining MISOL bo'limi

Menyu qismidan misol bo'limini tanlaganimizda quyidagi oyna hosil bo'ladi.

MUNDARIJA

- [Xususiy hosilali differensial tenglamaning xarakteristikasi haqida tushuncha](#)
- [Xususiy hosilali differensial tenglamalarning klassifikatsiyasi va ularning kanonik shakli](#)
- [Chiziqli bo'lmagan xususiy hosilali differensial tenglamani uning berilgan yechimi bo'ylab sinflarga ajratish](#)
- [Xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasining tipini aniqlash](#)
- [Ikki o'zgaruvchili ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarning umumiy yechimini topishga doir misollar](#)
- [Laplasning Kaskad usuli](#)
- [Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati](#)

Mustaqil yechish misollar

Quyida berilgan tenglamalarning tartibini aniqlang:

1. $\cos^2 u_{xy} + \sin^2 u_{yy} + 4u_x^3 - 2u_y + u = 0.$
2. $\cos^2 u_{yy} + \sin^2 u_{yy} + 4u_x^3 - 2u_y + u = 0.$
3. $\sin(u_{xy} - u_y) - \sin u_{xy} \cos u_y + \sin u_y \cos u_{xy} = 0.$
4. $\cos(u_{xy} - u_y) + \cos u_{xy} \cos u_y + \sin u_y \cos u_x = 0.$
5. $(u_{xx} - u_{yy})^2 - u_{xx}^2 - u_{yy}^2 = 0$
6. $(u_{xx} + u_{yy})^2 - 2u_{xx}u_{yy} = 0$
7. $(u_{xx} + u_y)^2 - u_{xx}^2 - 2u_{xx}u_y + 2u_x^2 + u = 0$
8. $(u_{xx} + u_{yy})^3 - u_{xx}^3 - 3u_{xx}^2u_{yy} - 3u_{xx}u_{yy}^2 - u_{yy}^3 + u_x^3 + u = 0$
9. $(u_{xx} + u_{yy})^3 - u_{xx}^3 - u_{yy}^3 + u_y^2 + 5u = 0$
10. $(u_{xx} - u_{yy})^3 - u_{xx}^3 - 3u_{xx}^2u_{yy} - 3u_{xx}u_{yy}^2 - u_{yy}^3 + u_y^3 + u_x = 0$
11. $\cos^2(u_{xy} + u_{yy}) + \sin^2(u_{xy} + u_{yy}) + u_{yy} - (u_y + 4)^2 + 8u_y + u = 0$
12. $\lg|u_{xx}u_{yy}| - \lg|u_{xx}| - \lg|u_{yy}| + 6u_y^3 + u_x = 0$
13. $(u_{xx} - u_{yy})(u_{xx} + u_{yy}) - \frac{\partial}{\partial x}(u_x - u_y) - \frac{\partial}{\partial y}(u_x - u_y) + 6u_x = 0$
14. $(u_x - u_y)(u_x + u_y) - \frac{\partial}{\partial x}(u_x - u_y) - \frac{\partial}{\partial y}(u_x - u_y) + 6u_x = 0$
15. $2(u_x - 2u)u_{xy} - \frac{\partial}{\partial y}(u_x - 2u)^2 - xy = 0$
16. $\frac{\partial}{\partial x}(u_{yy}^2 - u_y) - 2u_{yy} \frac{\partial}{\partial y}(u_{xx} - u_x) - 2u_x + 2 = 0$
17. $2u_{xx}u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y}(u_{xx} - u_y)^2 - 2u_yu_{xxy} + u_x = 0$
18. $u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y}(u_{xx} - u_y) - 2u_yu_{xx} + u_x = 0$

Menyuning misol bo'limiga murojaat qilganimizda bunda ham ma'ruza bo'limidagi kabi mundarija va asosiy oyna bo'ladi. Faqat mundarijadagi mavzular ro'yxatidan ixtiyoriysini tanlaganimizda shu mavzuga oid mustaqil yechish uchun 25 ta yoki 50 ta misol beriladi.

Masalan: "Xususiy hosilali differensial tenglamaning xarakteristikasi haqida tushuncha" mavzusi tanlanganda web sahifaning o'ng tomonidagi asosiy oynaga quyidagicha mustaqil yechish uchun misollar paydo bo'ladi.

Mustaqil yechish uchun misollar

Quyida berilgan tenglamalarning tartibini aniqlang:

$$1.1 \quad \cos^2 u_{xy} + \sin^2 u_{yy} + 4u_x^3 - 2u_y + u = 0.$$

$$1.2 \quad \cos^2 u_{yy} + \sin^2 u_{yy} + 4u_x^3 - 2u_y + u = 0.$$

$$1.3 \quad \sin u_{xy} - u_y - \sin u_{xy} \cos u_y + \sin u_y \cos u_{xy} = 0.$$

$$1.4 \quad \cos u_{xy} - u_y + \cos u_{xy} \cos u_y + \sin u_y \cos u_x = 0.$$

$$1.5 \quad u_{xx} - u_{yy}^2 - u_{xx}^2 - u_{yy}^2 = 0$$

$$1.6 \quad u_{xx} + u_{yy}^2 - 2u_{xx}u_{yy} = 0$$

$$1.7 \quad u_{xx} + u_y^2 - u_{xx}^2 - 2u_{xx}u_y + 2u_x^2 + u = 0$$

$$1.8 \quad u_{xx} + u_{yy}^3 - u_{xx}^3 - 3u_{xx}^2u_{yy} - 3u_{xx}u_{yy}^2 - u_{yy}^3 + u_x^3 + u = 0$$

$$1.9 \quad u_{xx} + u_{yy}^3 - u_{xx}^3 - u_{yy}^3 + u_y^2 + 5u = 0$$

$$1.10 \quad u_{xx} - u_{yy}^3 - u_{xx}^3 - 3u_{xx}^2u_{yy} - 3u_{xx}u_{yy}^2 - u_{yy}^3 + u_y^3 + u_x = 0$$

$$1.11 \quad \cos^2 u_{xy} + u_{yy} + \sin^2 u_{xy} + u_{yy} + u_{yy} - u_y + 4^2 + 8u_y + u = 0$$

$$1.12 \quad \lg u_{xx}u_{yy} - \lg u_{xx} - \lg u_{yy} + 6u_y^3 + u_x = 0$$

$$1.13 \quad u_{xx} - u_{yy} \quad u_{xx} + u_{yy} - \frac{\partial}{\partial x} u_x - u_y - \frac{\partial}{\partial y} u_x - u_y + 6u_x = 0$$

$$1.14 \quad u_x - u_y \quad u_x + u_y - \frac{\partial}{\partial x} u_x - u_y - \frac{\partial}{\partial y} u_x - u_y + 6u_x = 0$$

$$1.15 \quad 2 u_x - 2u u_{xy} - \frac{\partial}{\partial y} u_x - 2u^2 - xy = 0$$

$$1.16 \quad \frac{\partial}{\partial x} u_{yy}^2 - u_y - 2u_{yy} \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_x - 2u_x + 2 = 0$$

$$1.17 \quad 2u_{xx}u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_y^2 - 2u_yu_{xxy} + u_x = 0$$

- 1.18 $u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_y - 2u_y u_{xx} + u_x = 0$
- 1.19 $\frac{\partial}{\partial x} u_{yy}^2 - u_y - 2u_{yy} \frac{\partial}{\partial x} u_{yy} - u_x - 5u_x = 0$
- 1.20 $tgu_{xx} + ctgu_{xx}^2 - tg^2u_{xx} - ctg^2u_{xx} + 6u_x = 0$
- 1.21 $\cos 2u_{xx} - \cos^2 u_{xx} + \sin^2 u_{xx} - \sin u_{xx} + 8u_x + u = 0$
- 1.22 $\frac{\partial}{\partial y} \cos u_{xx} + \cos^2 u_{xx} + \sin^2 u_{xx} + u_{xxy} \sin u_{xx} + 8u_y + 5u = 0$
- 1.23 $2u_{xy} - 6\frac{\partial}{\partial x} u^2 - xy + u_{yy} = 0$
- 1.24 $tgu_{xx} + ctgu_{yy}^2 - tg^2u_{xx} - ctg^2u_{yy} + 6u_x = 0$
- 1.25 $\frac{\partial}{\partial y} yu_y + u_x^2 - 2u_x u_{xy} + u_x - 6u = 0$

Quyida berilgan xususiy hosilali tenglamalarning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

- 2.1 $2u_{xy} - 6\frac{\partial}{\partial x} u^2 - xy + u_{yy} = 0$
- 2.2 $u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_y - 2u_y u_{xx} + u_x + x - 3y = 0$
- 2.3 $u_y u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_y - 2u_y u_{xx} + u_x + 4y^2 = 0$
- 2.4 $y \frac{\partial}{\partial y} yu_y + u_x^2 - 2yu_x u_{xy} + u_x - 6u + xe^y = 0$
- 2.5 $2u_{xx} u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_y^2 - 2u_y u_{xxy} + u_x = 0$
- 2.6 $\frac{\partial}{\partial x} u_{yy}^2 - u_y - 2u_{yy} \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_x - 2u_x + 2 = 0$
- 2.7 $2xu_{xy} - 8\frac{\partial}{\partial x} u^2 - xy - 2u_{yy} = 0$

$$2.8 \quad \frac{\partial}{\partial y} yu_y + u_x^2 - 2u_x u_{xy} + u_{yy} - 6u_x + u + xe^y = 0$$

$$2.9 \quad yu_{xy} + u_{yy} - 6u_x + u^2 + 4xy = 0$$

$$2.10 \quad yu_{xy} + u_{yy} - yu_x + x^2u - 8xy = 0$$

$$2.11 \quad yu_{xyy} + u_{yy} - yu_{xy} + x^2u = 0$$

$$2.12 \quad 2xu_{xy} - 2\frac{\partial}{\partial y} y^2 - xyu - 2u_{yy} + 4y = 0$$

$$2.13 \quad u_{xyy} + xu_{yy} - \cos y \cdot u_{xy} + \sin x^2 u = 0$$

$$2.14 \quad a_{x,y} u_{xx} + 2b_{x,y} u_{xy} + c_{x,y} u_{yy} + d_{x,y} u_x + e_{x,y} u_y + h_{x,y} = 0$$

$$2.15 \quad 3x + 4y u_{xx} + 4x - y u_{xy} + 4x - 3y u_{yy} + x + y u_x + yu_y + 2x + 5y = 0$$

$$2.16 \quad \cos y \cdot u_{xyy} + u_{xxyy} - yu_{xy} + x^2 u^3 + yu = 0$$

$$2.17 \quad tgu_{xx} + ctgu_{xx}^2 - tg^2u_{xx} - ctg^2u_{xx} + 4u_{xx} + u_{xy} - 3u = 0$$

$$2.18 \quad xu_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y} xu_{xx} - 3xy - 2u_{xx} + u_x + 3x = 0$$

$$2.19 \quad x^2 yu_{xyy} + 2e^x y^2 u_{yy} - x^2 + y^2 u_{xy} + x^2 u = 0$$

$$2.20 \quad 2u_x u_{xy} - \frac{\partial}{\partial y} yu_y + u_x^2 + yu_{yy} - 6u_x + u + ye^{x+y} = 0$$

$$2.21 \quad u_x - u_y \quad u_x + u_y - \frac{\partial}{\partial x} u_x - u_y - \frac{\partial}{\partial y} u_x - u_y + 6u_x = 0$$

$$2.22 \quad \frac{\partial}{\partial x} u_x - u_y + \frac{\partial}{\partial y} u_x - u_y + x + y u_x + xe^y = 0$$

$$2.23 \quad u_x u_{xyy} + 8e^{x+y} u_{yy} - 9u_{xy} + f_{x,y} u = 0$$

$$2.24 \quad u_{xyy} + xye^{xy} u_{xy} - 9xu_{yy} + 7u_{yzz} + f_{x,y,z} u = 0$$


$$2.25 \quad u_t - 6uu_x + u_{xxx} = 0.$$

Mundarijadagi qolgan mavzularga ham xuddi shunday gipermurojaatlar qo'yilgan bo'lib, shu mavzular ichidan ixtiyoriy mavzuni tanlaganimizda yuqoridagi kabi mustaqil yechish uchun misollarni elektron o'quv qo'llanmaning o'ng tomonidagi asosiy oynaga chiqarib beradi.

Misollarni formulalarni HTML tilida teglar yordamida kiritish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirishi sababli formulalarni rasm ko'rinishida kiritamiz. Buning uchun HTML tilining `` toq tegidan foydalanamiz.

Menyu qismining O'qish bo'limi

Menyudan o'qish bo'limini tanlaganimizda bunda ham ma'ruza va misol bo'limlaridagi kabi bo'ladi. Bunda ham mundarijadan ixtiyoriy mavzuni tanlaganimizda shu mavzuga mos ma'ruzalar matnining ovozli varianti hosil bo'ladi ya'ni quyidagicha video ko'rinishida bo'ladi.



Bunda o'qib borilayotgan joyi qizil rangda o'zgarib boradi.

Ushbu videoni animatsiyasiz ya'ni o'qilayotgan joyini boshqa rangda o'zgarib borishini Power pointda hosil qilamiz va buni windows media video qilib saqlaymiz yoki ekranni o'zini videoga olamiz. Ushbu videoni web sahifaga joylashtirish uchun MS Front Page redaktorining obyektlar bilan ishlash funksiyasidan ya'ni redaktor oynasining pastki qismidagi instrumentlar qatoridan yoki Вставка → Рисунок → { из файла... видеозапись } tanlanadi.

Menyu qismining Test bo'limi

Menyudan test bo'limini tanlasak quyidagi oyna hosil bo'ladi.

1	Tenglamani tipini aniqlang $4u_{xx} + 2u_{yy} - 6u_{xz} + 6u_{xy} + 10u_{yz} + 4u_{yz} + 2u = 0$
<input type="radio"/> A)	Parabolik
<input type="radio"/> B)	Elliptik
<input type="radio"/> C)	Giperbolik
2	Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamani kanonik shaklga keltiring: $3u_{yy} - 2u_{xy} - 2u_{yz} + 4u = 0$
<input type="radio"/> A)	$v_{\xi\xi} - v_{\eta\eta} + 4v = 0, \quad \xi = y + z, \quad \eta = -y - 2z, \quad \zeta = x - z$
<input type="radio"/> B)	$v_{\xi\xi} - v_{\zeta\zeta} + 4v = 0, \quad \xi = x + y + z, \quad \eta = -y - z, \quad \zeta = x + y - z$
<input type="radio"/> C)	$v_{\eta\eta} + v_{\zeta\zeta} - 4v = 0, \quad \xi = x + y + z, \quad \eta = x - y - 2z, \quad \zeta = x - z$
3	Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamani kanonik shaklga keltiring: $u_{xx} + 2u_{xy} + 2u_{yy} + 4u_{yz} + 5u_{zz} = 0$
<input type="radio"/> A)	$v_{\xi\xi} - v_{\eta\eta} - v_{\zeta\zeta} = 0, \quad \xi = -x, \quad \eta = -x + y, \quad \zeta = 2x + 2y + z$
<input type="radio"/> B)	$v_{\xi\xi} + v_{\eta\eta} + v_{\zeta\zeta} = 0, \quad \xi = x, \quad \eta = -x + y, \quad \zeta = 2x - 2y + z$
<input type="radio"/> C)	$v_{\xi\xi} + v_{\eta\eta} + v_{\zeta\zeta} = 0, \quad \xi = x, \quad \eta = -x + y, \quad \zeta = 2x - 2y + z$
4	Quyida berilgan tenglamalar sistemasining tipini aniqlang: $\begin{cases} 15u_x + 9v_x + 12u_y + 17v_y - 3x \cdot \cos y = 0 \\ 3u_x + 2v_x + u_y - 6u = 0. \end{cases}$
<input type="radio"/> A)	Giperbolik
<input type="radio"/> B)	Elliptik
<input type="radio"/> C)	Parabolik
5	Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamani tipini saqlanadigan sohalarida kanonik shaklga keltiring: $u_{xx} + 4u_{xy} + 10u_{yy} - 24u_x + 42u_y + 2(x + y) = 0$
<input type="radio"/> A)	$v_{\xi\eta} + v_{\eta\eta} + 15v_{\xi} - 4\sqrt{6}v_{\eta} + \frac{1}{3}\xi = 0, \quad \xi = y - 2x, \quad \eta = \sqrt{6}x.$
<input type="radio"/> B)	$v_{\xi\xi} + v_{\eta\eta} + 15v_{\xi} + 4\sqrt{6}v_{\eta} - \frac{1}{6}\xi + \frac{1}{\sqrt{6}}\eta = 0, \quad \xi = y + 2x, \quad \eta = \sqrt{6}x.$
<input type="radio"/> C)	$v_{\xi\xi} + v_{\eta\eta} + 15v_{\xi} - 4\sqrt{6}v_{\eta} + \frac{1}{3}\xi + \frac{1}{\sqrt{6}}\eta = 0, \quad \xi = y - 2x, \quad \eta = \sqrt{6}x.$

Bunda barcha mavzular bo'yicha quyidagicha 100 ta test tuzilgan.

TEST

1. Quyida berilgan tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

$$\cos u_x + u_y - \cos u_x \cdot \cos u_y + \sin u_x \cdot \sin u_y = 0$$

A) Yo'q; B) Ha; C) To'g'ri javob yo'q;

2. Quyida berilgan tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

$$u_{xx}^2 + u_{yy}^2 - u_{xx} - u_{yy}^2 = 0$$

A) Ha; B) Yo'q; C) To'g'ri javob yo'q;

3. Quyida berilgan tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

$$\sin^2 u_{xx} + u_{xy} + \cos^2 u_{xx} + u_{xy} - u = 1$$

A) Yo'q; B) Ha; C) To'g'ri javob yo'q;

4. Quyida berilgan tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

$$\sin u_{xy} + u_x - \sin u_{xy} \cos u_x - \cos u_{xy} \sin u_x + 2u = 0$$

A) Yo'q; B) Ha; C) To'g'ri javob yo'q;

5. Quyida berilgan tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

$$\frac{\partial}{\partial x} tgu - u_x \sec^2 u - 3u + 2 = 0$$

A) Yo'q; B) Ha; C) To'g'ri javob yo'q;

6. Quyida berilgan tenglama xususiy hosilali differensial tenglama bo'ladimi?

$$\log u_x u_y - \log u_x - \log u_y + 5u - 6 = 0$$

A) Yo'q; B) Ha; C) To'g'ri javob yo'q;

7. Tenglama nechanchi tartibligini aniqlang?

$$\log u_{xx}u_{yy} - \log u_{xx} - \log u_{yy} + u_x + u_y = 0$$

A) Birinchi; B) Ikkinchi; C) Nolinchi;

8. Tenglama nechanchi tartibliligini aniqlang?

$$u_x u_{xy}^2 + u_{xx}^2 - 2u_{xy}^2 + u_y^2 - 2xy = 0$$

A) Ikkinchi; B) Birinchi; C) Uchinchi;

9. Tenglama nechanchi tartibliligini aniqlang?

$$\cos^2 u_{xy} + \sin^2 u_{xy} - 2u_x^2 - 3u_y + u = 0$$

A) Birinchi; B) Ikkinchi; C) Nolinchi;

10. Tenglama nechanchi tartibliligini aniqlang?

$$2u_x - 2u u_{xy} - \frac{\partial}{\partial y} u_x - 2u^2 - xy = 0$$

A) Birinchi; B) Ikkinchi; C) Nolinchi;

11. Tenglama nechanchi tartibliligini aniqlang?

$$\frac{\partial}{\partial x} u_{yy}^2 - u_y - 2u_{yy} \frac{\partial}{\partial y} u_{xy} - u_x - 2u_x + 2 = 0$$

A) Ikkinchi; B) Birinchi; C) Uchinchi;

12. Tenglama nechanchi tartibliligini aniqlang?

$$2u_{xx}u_{xxy} - \frac{\partial}{\partial y} u_{xx} - u_y^2 - 2u_y u_{xxy} + u_x = 0$$

A) Ikkinchi; B) Birinchi; C) Uchinchi;

13. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$u_x u_{xy}^2 + 2xuu_{yy} - 3xyu_y - u = 0$$

A) Chiziqli emas; B) Chiziqli; C) Kvazichiziqli.

14. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$u_y u_{xx} - 3x^2 u u_{xy} + 2u_x - f(x, y) u = 0$$

A) Kvazichiziqli. B) Chiziqsiz, bir jinsli emas; C) Chiziqli;

15. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$2 \sin x + y \cdot u_{xx} - x \cdot \cos y \cdot u_{xy} + xy u_x - 3u + 1 = 0$$

A) Chiziqli, bir jinsli emas; B) Kvazichiziqli, bir jinsli; C) Chiziqsiz, bir jinsli emas.

16. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$x^2 y u_{xxy} + 2e^x y^2 u_{xy} - x^2 y^2 + 1 u_{xx} - 2u = 0$$

A) Chiziqli, bir jinsli; B) Kvazichiziqli, bir jinsli emas; C) Chiziqsiz, bir jinsli emas.

17. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$3u_{xy} - 6u_{xx} + 7u_y - u_x + 8x = 0$$

A) Chiziqli, bir jinsli emas; B) Kvazichiziqli, bir jinsli; C) Chiziqsiz, bir jinsli emas.

18. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$u_{xy} u_{xx} - 3u_{yy} - 6xu_y + xyu = 0$$

A) Chiziqsiz, bir jinsli; B) Kvazichiziqli, bir jinsli; C) Chiziqli, bir jinsli emas.

19. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$a(x, y) u_{xx} + b(x, y) u_{xy} + c(x, y) u_{yy} + d(x, y) u_x + e(x, y) u_y + h(x, y) = 0$$

A) Chiziqli, bir jinsli emas agar $h(x, y) \neq 0$ bo'lsa;

B) Kvazichiziqli, bir jinsli agar $h(x, y) \neq 0$ bo'lsa;

C) Chiziqsiz, bir jinsli emas agar $h(x, y) = 0$ bo'lsa.

20. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$a x, y, u_x, u_{xy} u_{xyy} + b x, y, u_{yy} u_{yyy} + 2uu_x^2 - f x, y = 0$$

A) Kvazichiziqli, bir jinsli agar $f x, y = 0$ bo'lsa;

B) Chiziqli, bir jinsli agar $f x, y \neq 0$ bo'lsa;

C) Chiziqsiz, bir jinsli emas agar $f x, y = 0$ bo'lsa.

21. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$u_{xy} + u_y + u^2 - xy = 0$$

A) Kvazichiziqli, bir jinsli emas; B) Chiziqli, bir jinsli emas

C) Chiziqsiz, bir jinsli;

22. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$u_{xy} + 2 \frac{\partial}{\partial x} u_x^2 + u - 6x \cdot \sin y = 0$$

A) Kvazichiziqli; B) Chiziqli; C) Chiziqsiz;

23. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$2u_{xy} - 6 \frac{\partial}{\partial x} u^2 - xy + u_{yy} = 0$$

A) Kvazichiziqli, bir jinsli emas; B) Chiziqli, bir jinsli emas

C) Chiziqsiz, bir jinsli;

24. Quyida berilgan xususiy hosilali differensial tenglamaning chiziqli, kvazichiziqli, bir jinsli yoki bir jinsli emasligini aniqlang:

$$\frac{\partial}{\partial y} yu_y + u_x^2 - 2u_x u_{xy} + u_x - 6u = 0$$

A) Chiziqli, bir jinsli; B) Kvazichiziqli, bir jinsli emas;

C) Chiziqsiz, bir jinsli emas;

25. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$u_{xx} + 4u_{xy} + u_{yy} + u_x + u_y + 2u - x^2 y = 0$$

A) Giperbolik; B) Parabolik; C)Elliptik.

26. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$2u_{xx} + 2u_{xy} + u_{yy} + 2u_x + 2u_y - u = 0$$

A) Elliptik; B) Parabolik; C)Giperbolik.

27. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$u_{xx} + 2u_{xy} + u_{yy} + u_x + u_y + 3u - xy^2 = 0$$

A) Parabolik; B) Giperbolik; C)Elliptik.

28. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$4u_{xx} + 2u_{yy} - 6u_{zz} + 6u_{xy} + 10u_{xz} + 4u_{yz} + 2u = 0$$

A) Parabolik; B) Giperbolik; C)Elliptik.

29. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$2u_{xy} - 2u_{xz} + 2u_{yz} + 3u_x - u = 0$$

A) Giperbolik; B) Parabolik; C)Elliptik.

30. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$u_{xx} + 2u_{xy} + 2u_{yy} + 4u_{yz} + 5u_{zz} - xu_x + yu_z = 0$$

A) Elliptik; B) Giperbolik; C)Parabolik.

31. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$u_{xx} - 4u_{xy} + 2u_{xz} + 4u_{yy} + u_{zz} - 2xyu_x + 3xu = 0$$

A) Giperbolik; B) Elliptik; C)Parabolik.

32. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$u_{xy} + u_{yz} + u_{xz} - 3x^2u_y + y \cdot \sin xu + xe^{-y} = 0$$

A) Giperbolik; B) Elliptik; C)Parabolik.

33. Tenglamaning tipini aniqlang:

$$5u_{xx} + u_{yy} + 5u_{zz} + 4u_{xy} - 8u_{xz} - 4u_{yz} - u + yz^2 \cdot \sin x = 0$$

A) Elliptik; B) Giperbolik; C)Parabolik.

34. Tenglamani tipini aniqlang:

$$u_{xx} + 2u_{xy} + 2u_{yy} - 2u_{yz} + 3u_z - u = 0$$

A) Giperbolik; B) Parabolik; C)Elliptik.

35. Tenglamani tipini aniqlang:

$$3u_{xx} + 4u_{yy} + 5u_{zz} + 4u_{xy} - 4u_{yz} + 2u_x - u_y + xye^z = 0$$

A) Elliptik; B) Giperbolik; C)Parabolik.

36. Quyidagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechim bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx}^2 + u_{xx} - 2u_{xy} - u_{yy}^2 = 0, \quad u = x^2 + y^2$$

A) Giperbolik; B) Parabolik; C)Elliptik.

37. Quyidagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechimlar bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xy}^2 + u_{xx}u_{yy} + u_{yy}^2 = 8, \quad 1) u = x^2 + y^2, \quad 2) u = 2\sqrt{2}xy.$$

A) 1) Elliptik, 2)Giperbolik; B)1) Giperbolik 2)Parabolik;
C) 1)Parabolik 2) Elliptik.

38. Quyidagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechimlar bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx}^2 - 4u_{xy} + u_{yy}^2 = 0, \quad 1) u = x + y^2, \quad 2) u = x,$$

A) 1) Elliptik, 2)Giperbolik; B)1) Giperbolik 2)Parabolik;
C) 1)Parabolik 2) Elliptik.

39. Quyidagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechimlar bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx} + u_{xy}u_{yy} + u_{yy}^2 - 4u_{yy} = 0, \quad 1) u = 2y^2, \quad 2) u = 5xy, \\ 3) u = x.$$

- A) 1)Parabolik, 2)Elliptik, 3)Giperbolik ;
 B) 1)Giperbolik, 2)Elliptik, 3)Parabolik ;
 C) 1)Elliptik, 2)Giperbolik, 3)Parabolik;

40. Quydagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechimlar bo'ylab tipini aniqlang:

$$3u_{xx}^2 - 6u_{xy} + u_{yy} - 4 = 0, \quad u = \frac{1}{2}x^2 + y^2, \quad u = 2y^2$$

- A) 1) Parabolik, 2)Giperbolik; B)1) Giperbolik 2)Parabolik;
 C)1)Parabolik 2) Elliptik.

41. Quydagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechim bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx}^2 u_{xy} - 5u_{yy} + u_x - 2x + y - 8 = 0, \quad u = x^2 + 2xy$$

- A)Giperbolik; B) Parabolik; C) Elliptik.

42. Quydagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechim bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx}^4 + 2u_{xy}^2 - 3u_{yy} + u_y - 2x = 0, \quad u = 2xy - 8y.$$

- A)Giperbolik; B) Parabolik; C) Elliptik.

43. Quydagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechim bo'ylab tipini aniqlang:

$$2u_{xx}^3 + 2u_{xy}^5 + 3u_{yy} - 2u_y + 2x = 0, \quad u = xy - \frac{1}{2}x^2$$

- A)Giperbolik; B) Parabolik; C) Elliptik.

44. Quydagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechim bo'ylab tipini aniqlang:

$$5u_{xx}^5 - 7u_{xy} + 25u_{yy} - 150y = 0, \quad u = \frac{x^2}{2} + y^3 + \frac{5}{7}xy$$

- A) Elliptik; B) Giperbolik; C) Parabolik.

45. Quydagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechimlar bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx}^2 + 5u_{xy}^2 + 6u_{yy}^2 = 12, \quad 1) u = \frac{1}{2} x + y^2, \quad 2) u = \sqrt{3}x^2.$$

- A) 1) Giperbolik 2) Parabolik; B) 1) Parabolik, 2) Giperbolik;
C) 1) Parabolik 2) Elliptik.

46. Quyidagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechim bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx}^3 - 4u_{xy}^2 + 7u_{yy} - 4u_x + u_y + 3x + 4y + 3 = 0, \quad u = \frac{1}{2}x^2 + xy.$$

- A) Elliptik; B) Giperbolik; C) Parabolik.

47. Quyidagi tenglamani berilgan $u(x,y)$ yechim bo'ylab tipini aniqlang:

$$u_{xx}^2 - 2u_{xy}^2 + u_{yy}^2 + 2u_x - 2x + y = 0, \quad 1) u = \frac{1}{2} x + y^2.$$

- A) Parabolik; B) Giperbolik; C) Elliptik.

48. Quyida berilgan tenglamalar sistemasining tipini aniqlang:

$$\begin{aligned} 2u_x + 3u_y - 3v_y + u &= 0 \\ -u_x + u_y + v_x + xy &= 0. \end{aligned}$$

- A) Elliptik; B) Giperbolik; C) Parabolik.

49. Quyida berilgan tenglamalar sistemasining tipini aniqlang:

$$\begin{aligned} 2u_x + 3v_y + 3u_y - 6u &= 0 \\ u_x + u_y + v_x + x^2u &= 0. \end{aligned}$$

- A) Giperbolik; B) Parabolik; C) Elliptik.

50. Quyida berilgan tenglamalar sistemasining tipini aniqlang:

$$\begin{aligned} 2u_x + 3v_y + 3u_y - 2u &= 0 \\ u_x + v_x - u + xy^2 &= 0. \end{aligned}$$

- A) Parabolik; B) Giperbolik; C) Elliptik.

51. Quyida berilgan tenglamalar sistemasining tipini aniqlang:

